

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)**



**PEDAGOGIKA
PEDAGOGY**

OLIY TA’LIMDA TALABALAR MUSTAQIL DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISH VOSITALARI

Umirova Navruza Mamasoliyevna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktaranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’limda bosqichida talabalarni mustaqil dunyoqarashini kengaytirish uchun foydalaniladigan vositalarni ijobiy tomonlari yoritib berildi. Bunda xorijiy hamkorlik va xorijiy o‘quv dasturlar, ijtimoiy tarmoqlar, adabiyotlar, milliy qadriyatlar va ta’limda va ijtimoiy hayotda insonlar bilan muloqot kabi vositalar yoritildi.

Kalit so‘zlar: mustaqil dunyoqarash, xorijiy hamkorlik , xorijiy o‘quv dasturlar, ijtimoiy tarmoqlar, adabiyotlar, milliy qadriyatlar, muloqot, innovasiya.

ИНСТРУМЕНТЫ РАСШИРЕНИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В статье рассматриваются положительные аспекты инструментов, используемых для расширения самостоятельного мировоззрения студентов на уровне высшего образования. Сюда входило освещение зарубежного сотрудничества и зарубежных образовательных программ, социальных сетей, литературы, национальных ценностей, а также таких инструмен.

Ключевые слова: самостоятельное мировоззрение, зарубежное сотрудничество, зарубежные образовательные программы, социальные сети, литература, национальные ценности, коммуникация, инновации.

MEASURES FOR EXPANDING STUDENTS' INDEPENDENT WORLDVIEW IN HIGHER EDUCATION

Abstract: This article highlights the positive aspects of the tools used to expand the independent worldview of students at the higher education level. In this regard, such tools as foreign cooperation and foreign educational programs, social networks, literature, national values, and communication with people in education and social life were highlighted.

Keywords: independent worldview, foreign cooperation, foreign educational programs, social networks, literature, national values, communication, innovation.

KIRISH. Butun dunyoda jamiki millatlar borki ularning bir millat bo‘lib shakllanishida ularning milliyligi va qadriyatlarini avloddan-avlodga qadrini yoqotmasdan zamonaviylik kabi

tushunchalar bilan o‘tishida ta’limning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Shu asnosida ta’lim kasbga tayyorlashga, zamonaviy kasblarni mavjudlari bilan uyg’unlashtirishda turli vositalardan foydalanish maqsadli hisoblanadi.

Shunday ekan biz zamonaviy ta’limni tashkil etishimizda va zamon talablari darajasidagi yetuk kadrlarni tayyorlashimiz uchun o‘z mustaqil dunyoqarashiga ega bo‘lgan talabalarga ta’lim berishda turli vositalarni qo‘llashimiz va ta’lim jarayonida tadbiq qilishimiz va shu jumladan xorijiy rivojlangan mamlakat o‘quv dasturlaridan oliv ta’lim tizimida foydalanishimiz yoki yordamchi o‘quv dastur sifatida foydalanishimiz ta’limni takomillashtirishga xizmat qilsa ajab emas.

Inson tug’ilibdiki avvalo inson bo‘lib shakllanishida dastlab aqliy tarbiya maktab davriga kelib mustaqil fikrlashga va bu fikrlar shakllanib oliv ta’lim tizimiga kelib ancha murakkab fikrlar va dunyoqarash bilan xarakterlanadi. Chunki Yoshlar o‘smir yoshiga kelib mustaqil fikr bildirish va munosabatda bo‘lishga saba bo‘luvchi har xil vaziyatlar va sharoitlarga tushishi bilan ulardan mustaqil dunyoqarash shakllanadi va kengayadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Bizga ma’lumki, bugungi kunda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.04.2017 yildagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’limtizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g’risidagi” qarori, hamda 05.06.2018 yildagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g’risidagi” qarorlari, hamda 2021-yil 6-iyuldaggi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 421-sonli “O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliv ta’lim tashkilotlarining qo‘shma ta’lim dasturlari asosida ta’lim faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g’risidagi” nizomilariga tayangan holda oliv ta’limda talabalarni jahon tajribasi darajasidagi talablarga javob beradigan kadrlar qilib tayyorlash va ta’lim berish maqsadida ularning ta’lim jarayonida va ta’limdan tashqari ularni mustaqil fikrlashini kengaytiradigan vositalardan foydalanishimiz ularda dunyoqarashni kengayishi uchun yordam bo‘ladi. Talaba yoshlarni mustaqil dunyoqarashini kengaytiradigan vositalar oliv ta’lim tizimida ta’lim jarayonini tashkil etishda qo‘llaniladigan o‘quv dasturlar, adabiyyotlar o‘qish, ijtimoiy tarmoqlar va internet, milliy qadriyatlar va tengdosh va o‘zidan katta insonlar ijtimoiy tajribasi bilan o‘rtoqlashishi yordam berishi mumkin.

Oliy ta’lim tizimida talabalar kasbiy tayyorlanishi bilan birga mustaqil fikrlashi, bilimlarini shakllantirishi va kengaytirishida o‘quv dasturlarning ahamiyati nechog’lik muhim ekanligi ustida ko‘pgina olimlarimiz o‘z faoliyatları davomida yoritib kelishgan. Ular A.Begmatov, A.Mavrulov, G.Tulenova, J.Tulenov, M.Kahharova, E.Yusupov va boshqalarning izlanishlarida talqin qilingan. Oliy ta’limda o‘quv dasturlarining ahamiyati va talabalar dunyoqarashini shakllantiruvchi pedagogik omillar yuzasidan B.Adizov, B.Raximov, D.Ro‘zieva, D.Sharipova, M.Shodiyev, Z.Ismailova, Q.Q.Quranboev, M.Quronov, M.Maxmudova, N.A.Muslimov, N.Ortiqov, N.Egamberdieva, O.Jamoldinova,

O.Musurmonova, R.Djuraev, X.I.Ibragimov, Sh.Mardonov, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonovalar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Mazkur muammo yuzasidan xorijlik A.Amutio, A.Smit, A.Yolanda, Djasharbek U.Bidjiev, Svetlana A. Borlakova Nadezhda, P.Klushina, Jennifer Pipitone, K.Franco, L.Breeman, R.Sears, R.O.Renyе kabi olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Turli soha olimlari tomonidan oliy ta’lim muassasalari talabalarid dunyoqarashni rivojlantirish muammosi yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, madaniy, ijtimoiy, kasbiy hamda ijtimoiy dunyoqarash kasbiy faoliyat doirasida ahamiyatli unsurdir.

METODOLOGIYA.Dastlab ta’lim jarayonini tashkil etish fanlarni yoshlар bilim salohiyatini oshirish, bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda xorijiy o‘quv dasturlari va o‘qitishning yangicha usullaridan foydalanadiga jahонning eng rivojlangan mamlakatlari bilan hamkorlikda ishlash asosiy vosita sifadida sanashimiz ma’quldir. Rivojlangan mamalakatlar ta’limi o‘ziga xosligi va natijadorligi bilan ajralib turadi. Bunday davlatlardan AQSh, Germaniya, Italiya, Finlandiya, Malayziya, Hindiston, Yaponiya, Janubiy Korea davlatlari misol keltirish mumkin. Bu davlat ta’lim tizimi xalqaro darajadagi barcha talablarga mos kelishi, boshqa o‘ziga xos va mukammal ishlab chiqilganligi bilan ahamiyatlidir.

Yuqoridagi davlatlarning barchasi Oliy ta’limda o‘qitish bo‘yicha dunyoning eng mashhur Jahon universitetlari akademik reytingi, QS World University Rankings va Times Higher Education World University Rankings reytingida dunyoning eng yaxshi 100talikka kiruvchi universitetlar qatoriga kiruvchi davlatlar hisoblanadi. Ularning bakalavr, magistratura va ilmiy tadqiqot bo‘yicha talabgorlarni keng miqyosida qabul qilishi bilan ham taniqlidir. Universitetlari zamonaviy texnologiya va ilm-fanni yanada rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim va tadqiqotga global yondashuvni taklif qiladi. O‘quv dasturlari zamonaviy jahon standartlariga mos keladi.[4]

Talabalar mustaqil dunyoqarashini kengaytirishda ikkinchi vosita sifatida kitobni sanashimiz o‘rinli. Kitob insonning tafakkurini charxlovchi noyob quroldir. Kitoblar bilan yaqindan tanishgan sayin inson ko`p narsalarga o‘zgacha nigoh bilan nazar solishni boshlaydi. Kitob doimo insonlar uchun yaqin do‘sit, hamroh, dono maslahatchi bo‘lib kelgan. Ba’zi kitoblarni mutolaa qilganda inson o`zi uchun hayotni yangidan kashf etishi ham mumkin.

Bugungi hayotimizda ko`pchilik kitobning o`rni o`zgardi, endi kitob o`qish uchun vaqt sarflash noo‘rin, teatr, kino, gazeta, jurnallar kitoblarning vazifasini bajarib, ularning o`rnini butunlay egalladi deb hisoblashadi. Lekin aslida kitob haqiqatga yaqin manbadir. Kasbga tayyorlanish jarayonida talabalar kasbiy kompetensiyalarni rivojlanitirishda adabiyotlardan ma’lumotlar qidirishi, yangiliklar izlashi, badiiy adabiyotlarni o‘qishi, shuningdek qo‘shimcha materiallarni, qo‘llanmalarni jurnal va gazetalarni o‘qishi orqali muammolarni qanday yechish, mavzuni har tomonlama o‘rganish ya’ni sabablari va oqibatlarini o‘rganish, ma’lumotlarni nazariy bilimlarini anglab fikr bildirishga o‘rganadi.

Bilamizki XXI-asr axborot tehnologiyalari asri, shunday ekan zamonaviy taraqqiyot bilan hamnafas bo‘lishimiz kerakligi hech kimga sir emas. Bizni tehnologiyalar makonidagi

bilimimizning qanchalik keng ekanligi jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnimizni belgilab berayotgani ham yangilik emas. Har bir sohada yangi tehnologiyalarni hayotga keng targ’ib qilinayotgani ham ijtimoiy hayotimizga bir qator yengilliklar berayotgani juda ham quvonarli holat. Lekin tan olish kerakki bunday qulayliklardan noto‘g’ri maqsadda foydalanayotganlar talaygina.

Hozirgi paytda internet tarmog’idan foydalanish juda keng sur’atda rivojlanib bormoqda. Bu insonlarga juda keng imkoniyatlar eshiklarini ochib berayotgani hech kimga sir emas. Ma’lumotlarni uzatish, ta’lim olish, ko‘ngil ochar tarmoqlar va h.k. Internet haqida gap ketar ekan, Ijtimoiy tarmoqlarni gapirmaslikning umuman iloji yo‘q.

Umuman Internetning paydo bo‘lishi bilan hayotning juda ko‘p aspektlari, jumladan, kundalik maishiy xizmatlardan tortib, biznes va menejment, yuridik va konsullik xizmatlari va hatto davlat boshqaruvigacha birin-ketin virtual dunyoga ko‘cha boshladi. Eng muhimi, u yoshlarning an'anaviy muloqot shaklini tubdan o‘zgartirib yubordi. Olis masofadan turib nafaqat eshitish, balki ko‘rish imkoniyatining yuzaga kelishi virtual suhbatlarni keskin ommalashtirdi. Keyingi 15-20 yil davomida dunyo mamlakatlari aholisi, shu jumladan, O‘zbekistonlik yoshlар hayotida mobil aloqa urf tusini olgan bo‘lsa, hozirgi davrga kelib mobil uskunalardagi WhatsApp, ICQ, MSN Messenger va Telegram orqali matnli muloqot (ing. text messaging) ommaviylik kasb etmoqda.

Mana shunday xususiyatlari bilan ommaviy kommunikatsiya zamonaviy sivilizatsiyaning o‘ziga xos ko‘rinishiga aylanib ulgurmoqda. Ommabop ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelayotgan vatanparvar yoshlarning turli guruahlari axborot makonidagi o‘ziga xos targ’ibotchi sifatida e’tirof etilishi mumkin. E’tiborli jihatni shundaki, faol yoshlарimizni jipslashtirayotgan tarmoqdagi bu kabi ommabop guruhlar o‘z o‘rnida milliy OAV kabi mamlakatimiz media imidjini mustahkamlashga bevosita xizmat qilmoqda. Darhaqiqat ushbu raqamlar tobora kengayib borayotgani, bugungi kunda hech kimni ajablantirmasligi bor gap. Zamonaviy mobil qurilmalardan foydalanadigan biror bir inson yo‘qki unda ijtimoiy tarmoqlarni kuzatmaydigan. Ijtimoiy tarmoqlarning juda ko‘plab turlarini sanab o‘tishimiz mumkin:

Hayot tarzimiz texnikalar bilan birgalikda yuksalayotgan bir vaqtida yoshlарimiz ham bilim olishni, kasb egallashni, ijtimoiy ehtiyojlarni zamonaviy usullarda amalga oshirmoqda. Ta’lim olishni masofaviy tarzda savdo-sotiq, ma’lumot olish va topish va har bir kasbni boshqa davlatlarda qanday usullarda egallayotganini internet orqali o‘rganmoqda. Shuning uchun ham ta’lim zamonaviylikni talab qilmoqda va yangicha o‘qitish usullari va vositalardan foydalanilmoqda. Bugungi kun talabalarini talablarini bajarish ta’limdan qoniqishi, ilm olishga ishtiyoqini oshishi, kasb egallash sirlarini qiziqarli tajribalarda zamonaviy shaklda o‘rganishi bugungi kunda pedagogik sharoitlarni tashkillashtirishni taqozo qilmoqda. Tariximiz ilm-fan, din, san’at sohasida yurtimizda etishib chiqqan allomalar butun dunyoga dong taratganidan, ular o‘zlarining ilmlari bilan jahonda ilm-fan rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘sghan. Abu Nasr Forobiy jahon falsafasi rivojiga sezilardi hissa qo‘sghan bo‘lsa, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zamahshariy, Xorazmiy, Mirzo Ulug’bek singari allomalarimiz jahon fanini yangi

pog’onalarga ko‘tarishdi. Ismoil Buxoriy, at Termiziyy, Moturidiy, Abduxoliq /ijduvoniy, Bahovuddiy Naqshbandiy, Ahmad YAssaviylar esa, Hadis, kalom, fikh ilmlari va tasavvufda porloq yulduzlar hisoblanishadi. Amir Temur va Mirzo Boburning harbiy san’ati naqadar yuksakligini butun jahon e’tirof etadi.

Milliy g’oyaning shakllantirilishi va uning talabalar va keng aholi tomonidan o‘rganishga kirishilishi mamlakatimiz ma’naviy taraqqiyotida alohida bosqichni tashkil qiladi. Aslida milliy g’oyaning negizlari chuqur. U xalqimizning milliy madaniy merosidan, ezgu g’oyalaridan oziqlanadi. Lekin, bu g’oyani yoshlar va aholi ongiga singdirish uchun muayyan poydevor kerak edi. Ya’ni, avvalo milliy qadriyatlarni, milliy ma’naviyatni tiklash, milliy g’ururni uyg’otish, bir so‘z bilan aytganda, milliy g’oya tomir otishi va gurkirab rivojlanishi uchun zamin tayyorlash lozim edi. Mustaqillik qo‘lga kiritilgandan buyon o‘tgan davr ichida ma’naviyat sohasida ulkan nazariy, ma’rifiy va amaliy ishlar bajarildi. Ma’naviyat va ma’rifat kengashlari tuzildi, yuzlab maqola va risolalar nashr etildi, tadqiqotlar o‘tkazildi, ta’lim to‘g’risida milliy dastur qabul qilindi.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo‘lgan dolzarb masalalar, ularni bo’sh vaqtlarini samarali o‘tkazishlari uchun musobaqa va tadbirlar o‘tkazish ham ularmi milliy qadriyatlarimiz bilan tarbiyalash va mustaqil dunyoqarashini milliy tarbiya bilan boyitishga qaratilgan. Muayyan dunyoqarashga ega bo‘lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub’ektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to‘laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas’uliyat tuyg‘usiga ega bo‘lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaning yo‘lga qo‘yilishi, uning turli yo‘nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o‘z-o‘zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o‘zlashtirilishi muhim o‘rin tutadi.

NATIJA. Oliy ta’limda talabalar mustaqil dunyoqarashini kengaytirish uchun foydalaniladigan vositalar sifatida avvalo jahonning rivojlangan mamlakatlari bilan hamkorlikda ta’limni tashkil etish. Ikkinchidan, xorijiy davlatlar oliy ta’lim tizimi o‘quv dasturlarida qo‘llaydigan metod va usullardan talabalar mustaqil dunyoqarashini kengaytirish uchun foydalanish. Uchunchidan, badiiy va ilmiy adabiyotlar o‘qish, to‘rtinchidan, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, milliy qadriyatlarni singdirish va so‘ngisi kattalar va o‘z

tengi insonlar bilan suhbatlashishi, fikr almashishi va muhokamalar qilishi eng foydali vositalardan ekanligi natijalarda va kuzatishlarda o‘z isbotini topmoqda.

Talaba oliy ta’limda taqsil olish jarayonida yuqoridagi barcha vositalardan foydalanadi va o‘zining mustaqil fikrlarini o‘stiradigan va mustaqil dunyoqarashini kengaytiradigan vositalarni yoki usullarni ma’qul ko‘radi. Ba’zi talabalarga kitob eng samarli vosita bo‘lsa, boshqalariga ijtimoiy tarmoqlar qulay bo‘ladi. Shunday qilib ular o‘zlariga oson va bilimlarini tez boyitadigan vositani tanlashadi. Chunki hammani qabul qilish imkoniyati har xil bo‘ladi va ular uchun eng maqbul usul bo‘ladi. Shu vositalardan foydalanishi ular o‘z fikrlarini aytadi va mustaqil qaror qabul qilishadi.

Muhimi natija bo‘lishi va samarali usullar ular foydasiga ishlashi lozim. Eng samarali usl bugungi kunda internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlardan axborot olish va ma’lumotlar to‘plash. Keyingi o‘rinlarda adabiyotlar bilan tanishish va tengdoshlari bilan muhokamalar qilib muammolar yechimlarini ishlab chiqish bo‘lib qolmoqda. Ta’lim muassasalari bu vositalardan xorijiy hamkorlar bilan ishlash va ular qo‘llaydigan yangi zamonaviy innovasiyalardan ta’lim jarayonida qo‘llash vositasidan foydalanmoqda. Bu borada milliy o‘quv dasturlar bilan xorijiy dasturlarni uyg‘unlashtirilmoqda.[1]

MUHOKAMA. Bundan ko‘rinib turibdiki, jahoning eng rivojlangan mamlakatlari oliy ta’lim tizimida tashkil qilingan o‘quv jarayonlarining asosi bo‘lgan o‘quv dasturlar mazmunan bir xillikni tashkil qilsada talabalarni mustaqil dunyoqarashini kengaytirish va fikrlash dunyosini o‘stirish uchun turli usullardan foydalangan hamda ilg’or ta’limiy yondashuvlarni kiritgan. Bizning ham oliy ta’lim tizimida ishlab chiqilayotgan o‘quv dasturlar orqali talabalar mustaqil dunyoqarashini kengaytirish masalalari jahon ilg’or tendensiyalardan foydalanilsa ta’lim samaradorligini oshishiga erishgan bo‘lamiz.

Kitob o‘qish talabalar yoshida to‘g’ri xulosalar chiqarish, kurashuvchanlikni, so‘zlarni topib gapireshni, qiyin vaziyatlardan chiqishni, fikr bildirayotganda o‘ylab mulohaza qilib gapireshni o‘rganishadi. Kitob ko‘p oqigan inson boshqalarni hurmat qilib ko‘ngliga ozor bermasdan muloqotga kirishadi. Shuning uchun hayotda to‘g’ri tanlovlар qilishda talaba yoshlarga ko‘p adabiyotlar o‘qish tafsiya qilinadi. Kasbiy mahorat va texnikalarni o‘rganishda ham eng ishonchli manba bu kitob ekanligi ko‘p bor takidlanadi.

Shuning uchun talaba yoshlarni mustaqil dunyoqarashini kengaytirishda adabiyotlar eng samarali va foydali vosita hisoblanadi. Adabiyotlar bilan tanishinsh yoshlarda ma’lumotlarni solishtirish va eng maqbulini tanlash imkoniyatini paydo bo‘ladi, yani bir fikr bilan xulosa chiqarishga shoshilmaydi.

Oliy ta’lim tizimida talabalar bilim doirasini kengaytirish, bilim olishni zamon talablari darajasida ko‘tarish uchun internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ma’lumotlar qidirib topish uchun keng qo‘llaniladigan vosita hisoblanmoqda. Internetdan ma’lumotlar topish bir muncha tezligi, joy tanlamasligi, vaqt cheklanmaganligi, ma’lumotlarni xilma-xilligi bilan yoshlar o‘rtasida keng miqyosida foydalanilmoqda. Chunki internet tarmoqlaridan foydalanish uzoq

masofada shu sohada bo‘layotgan yangiliklar bilan tanishish va xabardor bo‘lish imkoniyati mavjud. Lekin undab keladigan xavf-xatarlarni ham hisobga olishimiz zarur.

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oliv ta’lim tizimida talabalarni intellektual salohiyatini o‘stirish uchun foydalanadigan o‘quv va yordamchi vositalar samarali bo‘lsa va o‘z natijasini bersa bo‘ldi.

Globallashuv asrida eng insoniyatni tashvishga soladigan muammo bu “inson kapitali”ni shakllantirish maqsadi bo‘lib, jamiyat barcha sohalardagi investiriyalarni insoniyat intellektual salohiyatini o‘stirish va kengaytirishga qaratmoqda. Chunki insoniyatni intellektual salohiyatini o‘sishi jamiyat rivoji, yangi innovasiyalarni hayotga tadbiq qilinishi va yangicha hayot sharoitlarini yaratilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Jamiyatga yangliklarni kirib kelishi va shu yangiliklarga munosib tayyor turishimiz uchun avvalo ta’limni so‘ggi yangiliklar va texnologiyalar bilan boyitishimiz lozim bo‘ladi.

Yangidan yangi kasblarni hayotimizga kirib kelishi, so‘nggi texnologiyalarni hayotga tadbiq qilishimizning barchasida ta’limning o‘rni va xizmati beqiyosdir. Shuning uchun porloq kelajak qurishimizda ham ta’limasosiy o‘rinda turadi chunki kelajagimiz yosh avlodlar qo‘lida ekan biz bugundan boshlab ularga yangi texnologiyalar orqali ta’lim berishimiz lozim. Jahon hamjamiyatida barcha tengdoshlari bilan berlash oladigan, fikr almasha oladiga va qolaversa o‘z fikrlarini g’oyalarini bemalol bildira oladigan yoshlarni tarbiyalashimizda ham ta’lim birinchi o‘rinda turadi. Ta’lim sohasidagi barcha yangiliklarni olib kirish va milliy o‘qitish tizimida hamkorlikda ta’limni tashkil etishimiz ham jahon hamjamiyatida talab qilinadigan talablarga munosib bo‘lishimiz ham bizning oliv maqsadlarimizdan biri hisoblanadi. Talabalar o‘z imkoniyatidan kelib chiqib biror maqbul usuldan foydalanib o‘quv materiallarini o‘zlashtirishi va mustaqil dunyoqarashga ega bo‘lishi eng muhimi hisoblanadi. Yangi innovasiyalni ta’lim tizimiga kirib kelishi ham an’anaviylikdan qochish va noananaviy ta’lim olishni ta’minlashdan iboratdi. Bu yangicha fikrlashni, yangi g’oyalarni paydo bo‘lishiga olib sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To‘raqulov O.X. O‘qitishda innovasion usullardan foydalanish// Kasb hunar ta’limi, 2005, 6-son.
2. Nagmetova N.M. Thoretical aspects of the formation of students’worldview in the process of training in higher education.
3. Mo’manova S.O. Amerika Qo‘shma Shtatlarining ta’lim tizimi.maqola.2023y may. Science and Education" Scientific Journal.
4. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES, 3, 710-719. (2023)
5. Activities of the Department of Social Sciences on the organization of the educational process. Textbook / V.A. Ksenofontov [and others]. Under total. ed. V.A. Ksenofontov. - Minsk: VA RB, 2012